

ABRI QOG‘OZINI TIKLASH VA UNING TARIXIY MANBALARNI TA’MIRLASHDAGI AHAMIYATI

Begmatov Xurshid Isanaliyevich
Qo‘qon dablat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abr qog‘oztarixi, an‘anaviy texnologiyalar, xususan tragakant elimidan foydalanish jarayoni va uning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Uningning tarixiy manbalarda qayd etilgan usullari, hunarmandchilik amaliyotining rivojlanishi hamda bugungi kunda ushbu merosning turizmda qo‘llanilishi analitik, taqqoslovchi va iqtisodiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Abr qog‘ozini zamonaviy madaniy brendinga aylanishi, turistik joziba omillarining kuchayishi, mahalliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi va istiqboldagi imkoniyatlari ilmiy asosda baholangan. Tadqiqot natijalari an‘anaviy qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasini saqlab qolish, uni innovatsion turizm dasturlarida qo‘llash hamda madaniy meros ob‘ekti sifatida keng targ‘ib etish muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Abr qog‘ozi, an‘anaviy qog‘oz tayyorlash, tragakant elim, hunarmandchilik, madaniy meros, tarixiy texnologiya, turizm, innovatsion turizm, iqtisodiy samaradorlik, Farg‘ona vodiysi, qog‘ozchilarning an‘analari.

РЕСТАВРАЦИЯ АБРИАНСКОЙ БУМАГИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В РЕСТАВРАЦИИ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Бегматов Хуршид Исаналиевич
Преподаватель Кокандского государственного университета

Аннотация. В данной статье научно анализируется история абрийской бумаги, традиционные технологии, в частности процесс использования трагакантовой камеди, и ее специфические свойства. На основе аналитического, сравнительного и экономического подходов рассматриваются методы ее изготовления, зафиксированные в исторических источниках, развитие ремесленной практики и использование этого наследия в современном туризме. Также научно оценивается трансформация абрийской бумаги в современный культурный бренд, усиление факторов привлекательности для туристов, ее вклад в местную экономику и ее будущий потенциал. Результаты исследования указывают на важность сохранения традиционной технологии производства бумаги, ее использования в

инновационных туристических программах и широкого продвижения как объекта культурного наследия.

Ключевые слова: бумага Abr, традиционное бумажное производство, трагакантовая камедь, ремесла, культурное наследие, исторические технологии, туризм, инновационный туризм, экономическая эффективность, Ферганская долина, традиции бумажников.

RESTORATION OF ABRIAN PAPER AND ITS SIGNIFICANCE IN THE RESTORATION OF HISTORICAL SOURCES

Begmatov Khurshid Isanalievich

Teacher at Kokand State University

Abstract. This article provides a scientific analysis of the history of Abrian paper, its traditional technologies, particularly the use of gum tragacanth, and its specific properties. Using analytical, comparative, and economic approaches, it examines its production methods recorded in historical sources, the development of craft practices, and the use of this heritage in modern tourism. It also evaluates the transformation of Abrian paper into a modern cultural brand, its enhanced appeal to tourists, its contribution to the local economy, and its future potential. The study's results highlight the importance of preserving traditional papermaking technologies, its use in innovative tourism programs, and its widespread promotion as a cultural heritage asset.

Key words: Abr paper, traditional papermaking, gum tragacanth, crafts, cultural heritage, historical technologies, tourism, innovative tourism, economic efficiency, Fergana Valley, papermaking traditions.

Kirish. Oʻrta asrlarda Sharq mamlakatlarida keng qoʻllanilgan abri qogʻozi — bezakli, rangli naqshlar bilan ishlangan maxsus texnologiyaga ega boʻlgan sanʼat mahsulidir. U koʻproq qoʻlyozma asarlar, kitob bezaklari va hujjatlar tayyorlashda qoʻllanilgan. Mustaqillik yillarida ushbu anʼanaviy texnologiyani ilmiy jihatdan oʻrganish, uni qayta tiklash va amaliyotga tatbiq etish boʻyicha bir qator izlanishlar olib borildi. Abri qogʻozi haqida dastlabki umumiy ilmiy maʼlumotlar A.Yu. Kaziev asarlarida uchraydi. Ammo baʼzi fikrlar — masalan, boʻyoqlarni elim bilan aralashtirish haqidagi mulohazalar ilmiy asosga ega emas. 1980-yillar oxiriga kelib, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Qoʻlyozmalar instituti xodimi T. Zufarov abri texnologiyasini oʻrganish borasida muhim natijalarga erishdi, bir necha ilmiy maʼruza va maqolalar eʼlon qildi. Shundan soʻng yosh musavvir-taʼmirlar

tomonidan amaliy tajribalar asosida abri qog'ozini qayta tiklash jarayoni boshlandi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi abri qog'ozining an'anaviy texnologiyasini ilmiy asosda tiklash, uning qo'lyozmalarni restavratsiya qilishdagi o'rni va amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi metodlarga tayandi:

1. Tarixiy manbalar tahlili — A.Yu.Kaziev, T.Zufarov va boshqa tadqiqotchilarning asarlari o'rganildi.

2. Eksperimental-amaliy yondashuv — ustalar Sh. Muhammadjonov va M.Salimov tomonidan olib borilgan ikki yillik tajribalar asos qilib olindi.

3. Texnologik kuzatuv va rekonstruksiya — abri qog'ozini tayyorlash jarayonidagi barcha bosqichlar: elim aralashmasini tayyorlash, bo'yoq pigmentlarini ishlatish, naqsh tushirish, quritish va sayqal berish amaliy jarayoni tasvirlab tahlil qilindi.

4. Estetik va san'atshunoslik tahlili — yaratilgan abri namunalari naqshlarining takrorlanmasligi, uslublar xilma-xilligi o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida abri qog'ozini tayyorlashning quyidagi ilmiy-texnologik asoslari aniqlandi: asosiy xomashyollari uchun maxsus to'rtburchak idish (chuqurligi 7 sm, o'lchami 40–60 sm), bo'yoqlar uchun alohida idishlar, tragakant elim aralashmasi, pigmentlar, buzoq o'ti, ingichka bigiz, chovgum, ot elidan tayyorlangan taroq, mo'yqalamlar kerak bo'ladi.

Texnologik jarayon quyidagicha amalga oshiriladi. Elim aralashmasi idish hajmiga mos tarzda tayyorlanadi, har bir pigment alohida kukun holiga keltiriladi, mo'yqalam buzoq o'tiga botiriladi va elim aralashmasi yuzasiga urib sepilib, bo'yoqlar sirtga sizib chiqib, alohida rang dog'larini hosil qiladi hamda usta ingichka chiziqlar, aylana, tarama yoki murakkab naqshlarni chizadi, shundan so'ng tayyor qog'oz sirtga tezda qo'yilib, 5–10 soniya ichida olinadi yakunda qog'oz quritilib, mineral tosh yoki chig'anoq bilan sayqal beriladi.

Abri naqshlarining turlari. Tajribalar davomida quyidagi abri uslublari qayta tiklandi: sochma abri, tarama abri, marmar abri, bulbul uyalari abri, kelket (archasimon) abri.

Amaliy natijalar

Tiklangan abri qog'ozlari qadimiy qo'lyozmalarni restavratsiya qilishda muvaffaqiyatli qo'llanildi. 1987-yil 6-mart kuni O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti ilmiy kengashida namoyish etilgan abri namunalari mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi. Ustalar tomonidan yaratilgan naqshlarning har biri takrorlanmas bo'lib, bu ularning ijodiy maktablarini aniqlash imkonini berdi.

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, abri qog'ozini tayyorlash jarayoni faqat amaliy hunarmandchilik emas, balki murakkab fizik-kimyoviy

jarayonlarni o'z ichiga olgan texnologik tizimdir. Bu texnologiyaning mukammalligi o'rta asr Sharq ustalarining tajribasi va san'at maktablarining yuksak darajada rivojlanganini tasdiqlaydi. Qadimiy manbalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, abri qog'ozining muvaffaqiyatli yaratilishida *tragakant eliminating** tarkibi va qovushqoqlik darajasi hal qiluvchi o'rin tutgan. A.Yu. Kaziev tomonidan ilgari surilgan "bo'yoqlarni elim bilan aralashtirish" haqidagi fikrning noto'g'riligini tajribalar ochiq-oydin isbotladi, chunki pigment va elimning bevosita qorishishi bo'yoqning sirtga tarqalish xususiyatini yo'qotadi.

T. Zufarovning tadqiqotlari esa ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. U ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv orqali abri texnologiyasining asosiy tamoyillarini aniqladi va amaliyotga tatbiq etish uchun dastlabki metodologik asoslarni yaratdi. Bunda uning tajriba natijalari yosh ustalar — Sh.Muhammadjonov va M. Salimov izlanishlarida muhim yo'nalish sifatida xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil qilinganda sharq mamlakatlari, xususan, Eron, Turkiya va Hindistondagi abri (marbling) an'analari bilan qiyoslaganda, o'zbek abri texnologiyasining bir qator o'ziga xos jihatlari mavjud: Tragakant elimi — boshqa hududlarda kraxmal yoki kitre ishlatilgan bo'lsa, o'zbek ustalari tragakantning maxsus konsentratsiyasidan foydalangan. Bu naqshlarning yanada mayin, taralish burchaklari aniq bo'lishini ta'minlagan. Taroq va chiziq naqshlari — o'zbek uslubida taroq yordamida yaratiladigan chizimli, archasimon va "kelket" naqshlari ko'proq uchraydi. Bo'yoqning sirt bo'ylab tarqalish tezligi — buzoq o'tining qo'llanilishi bo'yoqlarning sirtga tabiiy tarzda "sizib chiqish" jarayonini boshqaradi, bu boshqa maktablarda kam kuzatiladigan usuldir. Naqshlarning takrorlanmasligi — har bir abri namunasi o'ziga xos bo'lib, bu restavratsiya jarayonida tarixiy-hududiy maktablarni aniqlashda muhim belgi bo'lib xizmat qiladi.

Ishonchlilik va ilmiy asoslari. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, abri qog'ozini yaratish jarayoni algoritmik emas, balki ustaning san'atkori mahoratiga tayanadigan nozik jarayondir. Elim qovushqoqligi, pigment zichligi, taroq chuqurligi, bo'yoqning tomchilatish kuchi kabi ko'plab parametrlar natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun qadimiy ustalar texnologiyasini tiklash nafaqat ilmiy izlanish, balki ko'p yillik amaliy mashg'ulotlarni ham talab qildi. 1980-yillar oxirida tiklangan abri namunalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti mutaxassislari tomonidan yuqori baholanganligi ushbu metodning ilmiy izchilligi va amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Istiqbol va ijtimoiy-amaliy ahamiyati shundaki, abri qog'ozini texnologiyasining qayta tiklanishi kelgusida quyidagi yo'nalishlarda katta imkoniyatlar yaratishi mumkin:

Qo'lyozmalarni restavratsiya qilish — abri qog'ozini tarixiy kitoblar, muqovalar va varaqlarni tiklashda eng maqbul, ekologik toza va mos material sifatida e'tirof etilmoqda.

Hunarmandchilik turizmini rivojlantirish — Qo'qon, Buxoro va Toshkentda abri san'at maktablarini yo'lga qo'yish turistik mahsulot sifatida katta salohiyatga ega.

San'at ta'limi — oliy ta'lim muassasalarida miniatyura, kitob san'ati, naqshchilik yo'nalishlariga abri texnologiyasini kiritish milliy san'at maktabining rivojiga xizmat qiladi.

Mahalliy xomashyodan foydalanish — tragakant, tabiiy bo'yoqlar, buzoq o'ti kabi materiallarning qayta ishlab chiqarilishi iqtisodiy jihatdan ham foyda keltiradi.

Eksportbop mahsulot — abri qog'ozini zamonaviy dekoratsiya, interyer dizayni, moda sanoati uchun ham yuqori qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Qiyosiy, tarixiy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, abri qog'ozini tiklash nafaqat san'at merosini jonlantirish, balki uni ilmiy asosda rivojlantirish uchun ham asos yaratdi. Texnologiya to'liq rekonstruksiya qilingan bo'lsa-da, uning takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi uchun hali keng ilmiy maydon mavjud. Abri san'ati O'zbekistonning noan'anaviy, lekin ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy meros turlaridan biri sifatida istiqbolda xalqaro san'at bozori va akademik tadqiqotlar maydoniga chiqish salohiyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda abri qog'ozini tayyorlash texnologiyasining tarixiy ildizlari, kimyoviy-fizik asoslari hamda zamonaviy restavratsiya amaliyotidagi o'rni chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, abri san'ati O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida shakllangan noyob badiiy meros turlaridan biri bo'lib, uning tiklanishi nafaqat madaniy, balki ilmiy va texnologik ahamiyatga ham egadir. Birinchidan, tragakant elimi asosidagi qadimiy texnologiyaning qayta tiklanishi abri qog'ozining tabiiylik, mustahkamlik, ekologik xavfsizlik kabi afzalliklarini saqlab qolish imkonini berdi. Bu esa qo'lyozma fondlarini restavratsiya qilishda aynan shu turdagi materialning eng maqbul vosita ekanini yana bir bor tasdiqladi. Qadimiy qo'lyozmalarda uchraydigan abri varaqlarining tabiiy strukturasini saqlab tiklash — ilmiy restavratsiyaning eng muhim talablaridan biridir. Ikkinchidan, tajribalar asosida yaratilgan turfa rangdagi abri naqshlari ustalarning amaliy mahoratini kengaytirdi, yangi avlod musavvirlari va restavratorlarining ijodiy salohiyatini oshirdi. Naqshlarning takrorlanmasligi, har bir abri namunasi o'ziga xos kompozitsion tuzilishga ega bo'lishi ushbu san'atning estetik va badiiy qiymatini yanada yuksak darajada saqlab qolmoqda. Bu xususiyat o'z navbatida ilmiy identifikatsiya jarayonlarida (qo'lyozmaning kelib chiqish joyi, maktabi, davrini aniqlashda) yordam berishi mumkin. Uchinchidan, O'zbekiston FA

Sharqshunoslik instituti tomonidan abri namunalari yuqori baholanganligi bu texnologiyaning ilmiy asoslanganligi va amaliy jihatdan to'la tiklanganini tasdiqlaydi. Bu jarayon milliy san'at merosini saqlab qolish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga hamohangdir. To'rtinchidan, abri qog'ozining tiklanishi turizm, san'at ta'limi, hunarmandchilik va madaniy industriya sohalarida yangi istiqbollar ochmoqda. Abri san'atini Qo'qon, Buxoro, Samarqand va Toshkentda ustaxona-maktablar ko'rinishida rivojlantirish mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, milliy brend sifatida eksport salohiyatini oshirishi mumkin. Hozirgi global sharoitda ekologik toza, qo'lda yaratiladigan san'at mahsulotlariga talabning ortib borayotgani — abri qog'ozini uchun qulay imkoniyatdir.

Beshinchidan, abri san'atining ilmiy o'rganilishi san'atshunoslik, kimyo, materialshunoslik va restavratsiya fanlari o'rtasida yangi ko'p tarmoqli yondashuvlarni shakllantirmoqda. Bu esa kelajakdagi tadqiqotlar uchun keng ilmiy maydon yaratadi: elimin tarkibini chuqur kimyoviy tahlil qilish, yangi pigmentlar bilan tajribalar o'tkazish, zamonaviy laboratoriya uskunalari yordamida abri sirtining strukturasini o'rganish kabi yo'nalishlar hali to'liq tadqiq qilinmagan.

Umuman olganda, abri qog'ozining tiklanishi va amaliyotga qaytishi O'zbekistonning boy madaniy merosini zamonaviy ilmiy asosda qayta jonlantirgan yirik madaniy-tarixiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Bu san'at turi milliy identitetning bir qismi bo'lib, uning o'rganilishi va rivojlantirilishi kelajak avlodlar uchun bebaho ma'naviy merosni asrab qolishning samarali yo'li bo'lib xizmat qiladi.

*Tragakant elimi (ba'zan "tragakanta", "tragan't" deb ham ataladi) — Sharq mamlakatlarida qadimdan ishlatilgan, o'ta qovushqoq, tiniq, tabiiy o'simlik kelib chiqishiga ega elim moddasidir. U Astragalus (qo'ng'irboshlar oilasi) turkumiga mansub o'simliklarning (asosan Astragalus gummifer, Astragalus microcephalus) po'stlog'idan oqib chiqadigan tabiiy smola (sak) ning quritilishi orqali olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Казийев, А. Ю. Искусство изделия абр-банди в Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1978.
2. Зуфаров, Т. Абри қоғози хусусида. — Ўзбекистон Фанлар академияси Қўлғезмалар институти маърузалари, 1983.
3. Зуфаров, Т. Абри санъати ва унинг қўлғезмалар реставратсиясидаги ўрни. — "Шарқшунослик" журналы, №4, 1984, pp. 25–33.
4. Мухаммаджонов, Ш., & Салимов, М. Абри қоғози тайёрлаш технологиясининг тикланиши. — Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти хисоботлари, 1987.
5. Muminov, I. O'zbek kitob san'ati tarixi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1990.

6. Makhmudov, A. Sharq miniatyura maktablari va bezak san'ati. – Toshkent: San'at, 2002.
7. Efendi, S. Ebru Sanatı ve Tarihi. – İstanbul: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1995.
8. Arseven, C. E. Türk Süsleme Sanatları. – İstanbul: Cem Yayınevi, 1984.
9. Bridges, S. The Art of Marbling: Techniques and Traditions. – London: Thames & Hudson, 2007.
10. Dardashti, R. Persian Marbling (Abru). – Tehran University Press, 1999.
11. Qodirov, R. Qo'lyozma asarlarni restavratsiya qilishning nazariy asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010.
12. Jalolov, Sh. Materialshunoslik asoslari va tabiiy elimlar kimyosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
13. Karimova, Z. O'zbek san'at merosi va hunarmandchilik an'analari. – Toshkent: San'at, 2015.
14. UNESCO. Traditional Craftsmanship of Central Asia: Paper and Decorative Arts. – Paris, 2018.
15. Rashidov, B. Abri san'ati va rangtasvir texnikasi. – “San'at va madaniyat” jurnali, №2, 2020, pp. 44–51.